



**RUS TILINI O'RGANISH VA O'QITISHDA AN'ANA VA
INNOVATSIYALAR**

U.F. Xabibullayev

O'zDJTU Angren fakulteti o'qituvchisi

M.S. Axmedova

*O'zDJTU Angren fakulteti 1-kurs talabasi
Angren, O'zbekiston*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18229078>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada rus tilini o'rgatish va o'qitishda an'anaviy hamda innovatsion yondashuvlarning o'zaro bog'liqligi va samaradorligi tahlil qilinadi. Rus tili ta'limning tarixiy tajribasi, an'anaviy metodlar, ularning afzallik va kamchiliklari ko'rib chiqiladi. Shu bilan bir qatorda zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar–raqamli platformalar, interaktiv mashg'ulotlar, multimedia vositalari hamda internet resurslaridan foydalanishning o'rni va ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda kommunikativ yondashuv, ijodiy o'qitish metodlari va o'quvchilarning ishlashini rag'batlantiruvchi interfaol usullar tahlil etiladi.*

***Kalit so'zlar:** kommunikativ yondashuv, innovatsion texnologiyalar, an'anaviy metodlar, raqamli platformalar, ijodiy o'qitish, dialogik ta'lim, integratsiya.*

Bugungi globallashtirish va raqamli texnologiyalar davrida xorijiy tillarni o'rganish ta'lim tizimining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, rus tili xalqaro muloqot, fan, madaniyat va diplomatiya sohalarida keng qo'llanayotgan tillardan biri sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Shu bois uni o'qitish jarayonini takomillashtirish, zamon talablari asosida yangilash dolzarb masala hisoblanadi. Rus tilini o'rganish va o'qitishda asrlar davomida shakllangan an'anaviy metodlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Biroq zamonaviy ta'lim texnologiyalari, raqamli vositalar va innovatsion yondashuvlar ta'lim jarayonida yangidan yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shuning uchun ham an'anaviy tajribalar bilan innovatsion metodlarni uyg'unlashtirish samarali o'qitishning muhim sharti bo'lib qolmoqda. Tadqiqotning maqsadi – rus tili o'qitishning zamonaviy strategiyasini ishlab chiqish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan.

Rus tili bugungi kunda global dunyoda muhim o'rin tutadi. U nafaqat Rossiya Federatsiyasining davlat tili, balki sobiq SSSR hududidagi ko'plab mamlakatlarda ham muhim aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi. Rus tili BMTning rasmiy tillaridan biri bo'lib, diplomatik, siyosiy va xalqaro aloqalarda keng qo'llaniladi. Shuningdek, rus tili fan, texnika, adabiyot va madaniyat sohalarida ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Internetda eng ko'p ishlatiladigan tillar orasida rus tili birinchi o'nlikka kiradi. Ko'plab xalqaro ilmiy maqolalar, texnik hujjatlar va dasturlash manbalari rus tilida mavjud. Markaziy Osiyo, Sharqiy Yevropa va Kavkaz mamlakatlarida rus tili



xalqaro muloqot va ta'lim sifatida o'qitilmoqda. U yoshlar uchun xorijda ta'lim olish, ish topish va ilmiy izlanishlar olib borishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Taxminan 258 million kishi rus tilida so'zlashadi, shundan 154 million nafar uni ona tili sifatida qabul qiladi. Bu ko'rsatkichlar rus tilini dunyoda eng ko'p so'zlashadigan tillar orasida sakkizinchi o'ringa qo'yadi. Rus tili o'qitishdagi an'anaviy metodlar o'quvchilarni tilining grammatik tuzilishi, imlo qoidalar va adabiyot me'yorlari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan. Diktant yozish, matn tahlili, tarjima mashqlari, adabiy asarlar ustida ishlash, og'zaki nutq mashqlari kabi usullar o'quvchilarning so'z boyligini kengaytiradi va nutq madaniyatini rivojlantiradi. O'qituvchi bilan jonli muloqot, badiiy matnlarni o'qish va muhokama qilish o'quvchida til sezgisini shakllantiradi. Bu an'anaviy yondashuvlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, chunki har qanday innovatsiya mustahkam poydevor an'anaviy bilimlarga tayanadi.

Biroq zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsiyalar alohida o'rin egallaydi. So'nggi yillarda rus tilini o'rganishda raqamli texnologiyalar, interaktiv platformalar, mobil ilovalar va sun'iy intellektdan keng foydalanilmoqda. Sun'iy intellekt bilan suhbatlashish o'rganilayotgan tilni tez fursatda o'zlashtirishga yordam beradi. "Duolingo", "Quizlet", "LingQ" kabi ilovalar o'quvchilarga o'yin tarzida o'rganish imkonini berib, til o'rganish jarayonini qiziqarli qiladi. Shuningdek, onlayn lug'atlar, tovushli mashqlar, videodarslar, podkastlar va virtual suhbatlar o'quvchilarning mustaqil ishlashini, fikrlash va muloqot qilish ko'nikmalarini kuchaytiradi. Shu bilan bir qatorda elektron darsliklar, onlayn platformalar (Zoom, Google Classroom, Moodle) ta'lim jarayonini qulaylashtiradi. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida muloqot tez va samarli shaklda olib boriladi. Virtual sinflar, video darslar va taqdimotlar o'quv jarayonini yanada qiziqroq qiladi. Yevropa va Rossiya tajribasiga tayangan holda, G.N.Petrov va M.I.Ivanovanning tadqiqotlarida o'quvchilarning rus tilini ikkinchi til sifatida o'zlashtirishida raqamli metodikalar bilan bog'liq yondashuvlar samarali natija bergani qayd etilgan.

Innovatsion yondashuv o'quvchilarni faollikka undaydi, ularni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Ammo o'qituvchi innovatsiyalarni qo'llashda muvozanatni saqlashi zarur. Faqat texnologiyaga tayanish yozma savodxonlik va nutq madaniyatining susayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli eng to'g'ri yo'l an'anaviy metodlar bilan innovatsion yondashuvlarni uyg'unlashtirishdir.

Rus tili o'qituvchisi o'quvchiga tilni faqat grammatik tizim sifatida emas, balki madaniyat, fikrlash va muloqot vositasi sifatida anglatishi lozim. Dars jarayonida klassik adabiyot namunalarini tahlil qilish, mashhur yozuvchilar asarlaridan foydalanish va zamonaviy raqamli manbalar bilan ishlash o'quvchiga tilni chuqur,



hayotiy tarzda o'rganish imkonini beradi. Bundan tashqari, kommunikativ yondashuv metodik yo'nalishi ham mavjud. Bu metodikaning asosiy maqsadi o'quvchini tilini muloqot vositasi sifatida qo'llashga yordam o'rgatishdir. Uning asosiy xususiyati shundaki, o'quvchilar tilni haqiqiy hayotdagi vaziyatlarda ishlatishni o'rganadi. Bu jarayonda interaktiv juftlikda yoki guruhda ishlash, suhbat, rol o'ynash kabi usullar qo'llaniladi. Konteksli o'rganishda til elementlari (so'z, grammatik shakl) alohida emas, ma'no va vaziyat bilan birga o'zlashtiriladi va tilning to'rt ko'nikmasi (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish) bir-biri bilan bog'liq holda rivojlantiriladi. Bundan tashqari, rus tilini boshqa fanlar bilan integratsiyada o'qitish samarali natija beradi.

Zamonaviy dars usullari orasida dialogik ta'lim, gamifikatsiya va muammoli ta'lim usullari alohida o'rin tutadi. Dialogik ta'limda o'quvchilar munozara va intervyular orqali nutq mahoratini rivojlantiradilar. Gamifikatsiya esa o'yin elementlarini joriy qilish orqali o'quvchilarning qiziqishini uyg'otadi. Muammoli ta'lim usuli esa o'quvchilarni mustaqil fikrlash va real hayotiy vaziyatlarda tilni qo'llashga undaydi.

O'tqazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, rus tilini o'qitish va o'rgatish jarayonida an'anaviy va innovatsion yondashuvlar uyg'unlashuvi zamonaviy ta'lim tizimi uchun eng samarali yo'nalishlardan biri ekanligi aniqlandi. Zamonaviy o'quvchilar faol, texnologiyaga mos va interaktiv o'rganish usulini talab etadi, chunki bugungi kunda rus tilini o'qitishda an'anaviy usullarga tayangan holda yuqori natijaga erishish qiyin. Shu sababli klassik pedagogika tajribasini saqlagan holda, uni yangi axborot texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish kerak. Ularning uyg'unligi natijasida o'quvchi nafaqat rus tilini o'rganadi, balki uni madaniyat darajasida anglaydi, fikrini erkin va to'g'ri ifoda eta oladigan, zamonaviy tafakkurga ega shaxs sifatida shakllanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Qahhorova Eliza. Sovremennoye obrazovaniye I issledovaniye - Rus tilining xalqaro muloqotdagi o'rni. – 2025.
2. Jalilov Yoqutxon. Rus tilini o'qitishning zamonaviy metodologik asoslari. – 2025.
3. Bafojeva R.V. The Lingua Spektrum. Sun'iy intellekt va uning chet tili hamda adabiyotini o'rganishda uchraydigan muammolarni hal etishdagi ahamiyati. – 2025.
4. Kozlovz T.N. Raqamli ta'lim muhitida filologik fanlarni o'qitishning zamonaviy tendensiyalari. Oliy ta'lim innovatsiya jurnali. – 2021. – №3.
5. Petrov G.N., Ivanova M.I. Ispol'zovaniye mul'timediynyx sredstv pri obuchenii russkomu yazyku kak nerodnomu v DOU. Vestnik pedagogicheskikh nauk, 2020. – № 2.
6. Xunarova L.A. Грамматическая сложность в обучении русскому языку как иностранному // Лучшие интеллектуальные исследования, 2025. – 2 (38). – С.202-206.
7. Xunarova L.A. Особенности технологии совершенствования методики обучения русскому языку учащихся посредством инновационных образовательных технологий в социуме.